

“DEVONI FONIY” DAGI MUXTARA’(IXTIRO)G`AZALLAR BADIYYATI

Xayriyeva Nargiza Ixtiyor qizi

Buxoro davlat universiteti

O`zbek tili va adabiyoti kafedrasida

1-bosqich magistranti

***Annotatsiya:** maqolada Alisher Navoiyning forsiy tildagi ulkan va beqiyos adabiy merosini jamlagan “Devoni Foniya” kulliyoti tarkibidagi “muxtara” va “ixtiro” g`azallarining g`oyaviy-badiiy tahlili amalga oshirilgan. Tatabbu(boshqa bir ijodkor g`azaliga o`xshatish asosiga qurilgan) hamda tavr(uslubiy yaqinlik, qisman o`xshashlik mavjud) g`azallardan farqlanuvchi ijodkor kashfiyoti asosiga qurilgan muxtara g`azallar tahlil qilingan.*

***Kalit so`zlar:** muxtara’, ixtiro, tatabbu, tavr, tasavvuf, may, soqiy.*

KIRISH

Alisher Navoiyning forsiy tildagi ijod durdonalari jahon adabiyoti, shuningdek, sharqda, turkiy adabiy merosida salmoqli o`rin egallaydi. Ayniqsa, o`zbek adabiyoti gulshanida “Devoni Foniya”kabi nodir asarlar miqdori sanoqlidir. “Devoni Foniya” borasidagi tadqiqotlar salmoqli bo`lsa-da, uning “muxtara” (ixtiro)g`azallari birmuncha kamroq o`rganilgan. Oxirgi muhim izlanishlardan Olimjon Davlatovning “Foniya muxtara g`azallari” tadqiqoti hamda Nazora Bekovaning “Alisher Navoiy forsiy merosining janriy xususiyatlari va badiiyati” nomli monografiyalari bu boradagi izlanishlar hosilasidir.

“Shoirning muxtara’ g`azallari soni haqida turli-tuman fikrlar bor. Olim Davlatov esa “Foniya muxtara’ g`azallari” maqolasida ularning soni Alisher Navoiy to`la asarlar to`plami 10 jildlikda 95 ta ekanligini qayd etadi. Biz esa shoir mukammal asarlari to`plami 20 jildlikning 18, 19 va 20-jildlarini nazardan o`tkazib, muxtara’ g`azallarining bu nashrda 88 ta ekanligiga guvoh bo`ldik”[1].

Ushbu tahlilni amalga oshirgan tadqiqotchi Nazora Bekova muxtara' g`azallarning g`oyaviy-badiiy xususiyatlarini ixtiro g`azallar asosida keng ko`lamda o`rgangan. Ilmiy ishda Foniyning ko`plab ixtiro g`azallari tahlil qilingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bizning ushbu kichik izlanishimizda ham shu turkumga mansub bo`lgan Navoiyning yangi, o`zidan oldingi, o`ziga zamondosh hamda keyingi ijod ahllari nazmiy dudonalariga mengzamaydigan va ularni hech bir jihati bilan takrorlamaydigan durdona g`azallari ummonining tomchilarini o`rganishni maqsad qildik. Quyida ushbu g`azallar borasida fikr yuritimiz. Tahlilga tortgan g`azallarimiz Alisher Navoiyning "Mukammal asarlar to`lami" idagi 18, 19, 20-jildlarni o`z ichiga oladi.

Muxtara` [4.14]

Shud balo chashmi tu, ey gulruxsor,

Nuqtayi zeri balo xoli uzor.

Tarjimasi:

Ey gul yuzli , sening ko`zing balo bo`ldi, yuzingdan xoling balo so`zi ostidagi nuqtadir.

G`azaldagi ilk baytda arab va fors alifbosi va undagi "balo" so`zi yozilishiga ishora qilingan. Ya`ni "b" harfi ostida nuqtasi bo`lishi yor yuzidagi xolni shunga qiyoslashga asos bo`lgan.

In, ki qadar ch(j)onu dil otash zaday,

Dil az in hast ba ch(j)on minnatdor.–

–Sen jon-u dilga o`t urding, dil shuning uchun jondan minnatdordir.

Dil, jon, otash tushunchalari orqali tan va ruh hamohangligi ifodalangan bo`lib, yurakning jondan minnatdorligi aytilmoqda.

Bodai la'li labat peshi nazar,

Az chi shud chashmi tu dar raftor.–

- La'l labing mayi mening ko`zim oldida-yu, nima uchun sening ko`zing xumor bo`ladi?

Baytda “xumor” so`ziga asosiy urg`u berilyapti. “Xumor” –Odatlanish tufayli biror narsaga bo`lgan chanqoqlik, mushtoqlik, zo`r istak degan ma`noda qo`llanib baytdagi oshiq holatini ifodalagan. Shuningdek, “xumor”ning mashuqa ko`zini nazarda tutgan xumor-suzuk, chiroyli ko`z ma`nosini ham ifodalagan. Demak, shoir ushbu baytda ham oshiq, ham mashuqaga xos xususiyatlarni tasvirlagan: bir “xumor” ko`zning sifati, boshqasi oshiq holati aksi bo`lib kelgan. Xullas, bir so`zning turli ma`nolarini qo`llash orqali ham ma`noviy, ham shakliy rang-baranglik asosida so`z o`yini qo`llangan. Shuningdek, “boda”, “la'l”, “lab” sozlarining qizil rangga aloqadorligi jihatdan hamda “lab””, “chashm”, “nazar” “raftor” kalimalari orqali tanosub san`ati yuzaga kelgan.

Ch(j)ilvayi, sarvi ravoni tu hayot

Dihad, ammo kushadam dar raftor.–

Sarv ravoning(qomating)jilvasi hayot bag`ishlaydi, ammo raftoring (yurishing)meni o`ldiradi.

Ushu baytda yorning qomati hayot bag`ishlashi hamda yurishi oshiqni o`limiga sababchi bo`lishi qarama-qarshi qo`yilgan. Bunda tazod san`ati yuzga kelgan.

Oshiq shunday ta`sirchan, hissiyoti yuksakki, yorning har bir harakatlari-yu harakatsizligi yo azob, yo rohat; yo hayot yo mamot...demakdir.

Soqiyο, sog`ari ayshat chu pur ast,

No`shu no`shon , ba zamin pur maguzor.

Ey soqiy, ayshing sog`ari to`la bo`lgan mahalda ich va ichir, (ammo) yerga to`kaverma.

Yuqoridagi jumlada sog`ar–tasavvufiy tushuncha sifatida “ishq”, “may”, “mayxona”, “xarobot”, “soqiy”, “qadah”, “xum” singari istilohlar qatorida mazmuniy birlik hosil qilgan. Bir qarashda ishq-muhabbat mavzusida yozilgan g`azal bo`lib ko`rinsa-da, ayrim tasavvufiy tushunchalarning aks etishi orqali aslida foniy dunyodagi mashuqa – yor(qiz)emas, Alloh jamoli, vasfi tarannum etiladi. Baytda soqiyga murojaat qilingan va may(ishq, dard)borligi va Alloh ishqi ko`ngilda bo`lgan mahalda uni bo`lishish, yanada orttirish(ko`proq sevish)kerakligini ta`kidlaydi. Tasavvufda soqiy, sog`ar ramziy obrazlari ham yuqoridagi kabi qo`llanishi kuzatiladi. Shuningdek, mayni ichish va ichirish, ammo isrof qilmaslikka undaydi, ya`ni sevish, sevilishga, muhabbatsiz yurmaslikka chorlaydi. Bu xuddiki, “Qur`oni karim”dagi “yenglar, ichinglar, ammo isrof qilmanglar” ma`nosidagi oyatini esga soladi.

Bulbul ar sheftai gulshan gasht,

Did dar har gulash ammo sad xor.

–Bulbul gulshanga oshiq bo`ldi-yu, (ammo)har gulda yuz tikan ko`rdi.

Baytda oshiq bulbulga, mashuqa atirgulga, oshqlik zahmati, ma`shuqaga yetishish yo`lidagi dard-u sitamlar, azob-u hijronlar shoir nazdida tikonga o`xshatilyapti. Zero, bir narsaga erishish uchun boshqasini boy berish mumkin, ya`ni hajr-u hijron, g`am- anduhlarga dosh bersagina visolga yetadi. Binobarin, jon chekmasang, jonona qayda, tog`ga chiqmasang, do`lona...Baytda inson suygan

kishisini ayb-u qusur, kamchiliklari bilan birga sevishi kerakligi to`g`risida ham ishoralar mavjud. Zero, turkcha aytganda,

“Hayatta en zor olan

Bir insanni tanimak.

Kabul etmek huylarini

Deyishmeden bir olmak”–

Hayotda eng qiyin ish – bu bir insonni tanish(bilish) va unig barcha sho`xlik, kamchiliklari bilan qabul qilishdir.

Foniyo, az chamani dahr bibur

Shoxi ummed, ki on n-orad bor.

–Ey Foniy, dahr chamanidan umiding shoxini kes, chunki u meva bermaydi.

Dahr–vaqt, taqdir, falak demakdir. Dastlabki ma’nosi zamon, davr kabilarni bildirsa, ikkilamchi: olam, dunyo, jahon, ya’ni biz yashayotgan butun borliq nazarda tutilmoqda. Bu foniyo dunyoga ishora mavjud. Navoiy g`azalda o`z-o`ziga murojaat qilib, bu o`tkinchi dunyodan, hoy-u havas va nafsdan o`zini tiyish va bu yaxshi oqibat hosil qilmasligi “meva bermasligi”ga ishora qilingan. Ya’ni foniyo dunyodagi orzu-istaklarimiz, havaslarimiz ortidan borish, nafs quliga aylanish boqiy dunyomiz uchun “meva berolmasligi”ni ta’kidlaydi. Zero, ko`z ochib yumguncha o`tib ketadigan biz yashab turgan olam, asl hayotimiz kechadigan haqiqiy dunyo– boqiy umrimiz oldida zarracha qiymatli emas.

Kuzatishlarimiz orqali bizga ma’lum bo`ldiki, “Devoni Foniyo” tarkibidagi muxtara’ va ixtiro g`azallarda asosan, “may”, “mayxona”, “soqiy”, “mug`bachcha”, “dayr” kabi istilohlar alohida ahamiyatga ega va mazkur mavzular ko`plab g`azallar asosini tashkil etgan. Keyingi muxtara’ g`azalda ham “jom”, “qadah”,

“may”, “soqiy”, “maxmur”(xumor), “mug`anniy” tushunchalari orqali Allohga bo`lgan beqiyos muhabbat ifodalangan:

[184] Ba maxmuri payopay-pay metapad dil,

Magar az mujdai may metapad dil?

–Dil xumorlikdan ketma-ket tipirchiladimi yoki mayning xushxabaridanmi?

Matlada “maxmur”(xumor), “dil”, “mujda”, “may” so`zlari vositasida tanosub san`ati yuzaga kelgan. Baytda yurak ishqqa tashnalikdan betoqat bo`lmoqdami yoki may(ishq)dan xushxabar kelganidanmi deya qalbning tushunilmas holatiga ishora qilinmoqda.

Labo-lab sog`arash sozad magar daf`

Chu zi-n sonam payo-pay metapad dil.

–Dilim shu zaylda ketma-ket urib turibdi, uni limo-lim payola daf` qilarmikan?

Ilk baytda tasvirlangan yurak bezovtaligi ikkinchi baytda yanada kuchayadi va may to`la qadah(haqiqiy–Alloh ishq,i,dard) mushkulini oson qilishidan umidvor oshiq kechinmalari aks etadi.

Magar soqii mahvash xohadam dosht,

Qadah k-az shodii vay metapad dil.

–Mahvash soqiy menga qadah tutmoqchi bo`ldimiki, shodlikdan yuragim o`ynab ketdi.

Ishq hadya etuvchi ma`shuqa(mahvash)soqiy tarzida oshiqqa qadah(ishq to`la jom)qadah uzatmoqchi bo`lgandek va bundan oshiqning yuragi shodlikka to`lib yana uraveradi. Ushbu baytda ham soqii-mahvash-qadah kalomlari vositasida

tanosubdan unumli foydalanilgan. Umuman olganda, tanosub mazkur g`azalda oshiq holatining ifodachisi bo`lib xizmat qilgan.

Tapad dil azb mayam, ne z-obi hayvon,

Napindori zi har shay metapad dil.

–Dilimning urishi obi hayot uchun emas, balki may uchun , dil bo`lar-bo`lmas narsalarga)uraveradi deb o`ylama.

Bunda yurakning o`rtanib urishlari hayot manbai–suv uchun emas, balki undan-da zarur ehtiyoj–Alloh ishq(may)sababidandir.

Ba gul shabnam chi taskinam dihad z-on-k,

Az on ruxsori purxui metapad dil.

–Guldagi shudring menga qanday taskin bersin, u terlagan ruxsor uchun yuragim uradi.

G`azalning 5-baytida gul, shabnam,di; ruxsori va purxui so`zlari vositasida tanoosub yuzaga kelgan. Shuningdek, gulga tushgan shabnam(shudring) yor yuzidagi ter(purxu–reza)ga o`xshatiladi.

Tapish dilro az on mahvash mug`annist,

Magu k-az nag`mai metapad dil.

– Dilning urishi nay nag`masidan dema, uning beqarorligiga o`sha sozanda mahvash sababdir.

Baytda mahvash–mug`annist–nag`ma–nay so`zlari vositasida tanosub vujudga kelgan. Yurakning o`ynoqi va behalovatligi nay nolasidan emas, balki nay chaluvchi sozanda(mahvash–mug`annist)ning nag`masi sababidandir.

Dil, ey Foniy, tapad be soqiyu ch(j)om,

Zi huru kavsaram kay metapad dil?

–Ey Foniy, dil soqiy va may bo`lmaganidan uradi, huru kavsar uchun qachon ursin?

So`nggi misralarda yuqoridagi mulohazalarga ham zid, ham mushtarak fikrlar hamohangligi mavjud. Ya`ni, yurak balki soqiy va may bo`lmagani uchun, haqiqiy ishq, Haq tomonga intilib uradi. Boqiy dunyo (arsh)dagi hurlar va suvi kavsarni istab yoki aynan o`sha yerda qachon uradi deya, o`tkinchi umrdan qachon Haq visoli-yu kavsar bulog`i, hurlarni ko`rganda haqiqiy yurak “tepishi”ga umidlanish seziladi.

“Devoni Foniy”dagi ixtiro g`azallar mavzular olamida ayni bir mushtarak jihat mavjud bo`lib, aksariyati Alloh ishq, boqiy hayot asosiga qurilgan. Deyarli barcha muxtara` g`azal tarkibida “may”, “ishq”, “mug`bacha”, “soqiy”, “kavsar”, “firdavs”, “dayr” tasavvufiy istilohlar ko`zga tashlanadi. Shuningdek, ilohiylik belgisi bo`lib “Qur`oni Karim”da nomi keltirilgan payg`ambar-avliyolar, tarixiy shaxslar hamda badiiy adabiyotdagi sayyor qahramonlar nomi ham keltirilgan. Chunonchi, Jabroil, Iskandar, Namrud, Iso Masih, Mariyam, Sulaymon, Xizir, Jamshid, Yusuf, Farhod, Majnun, Layli, Shayx Sa`non, Vomiq, Rustam; Arsh, Ka`ba, Bog`i Jahonoro, Xitoy-u Chin, Eram, Isfahon, Kan`on qudug`i, to`rt muqaddas kitob–Tavrot, Injil, Zabur, Qur`on kabi nomlar asar tasavvuf ruhda bitilganidan dalolatdir.

XULOSA

Foniy g`azallaridagi har bir ibora, har bir satr, har bir bayt ma`nolar silsilasini hosil qilib, muayyan holat va kayfiyatni to`liq tasvirlashga xizmat qiladigan detal vazifasini o`taydi. Yuqorida tahlilga tortilgan ikki muxtara` g`azal

ham shunday yashirin, takrorlanmas novatorlikni o`zida mujassam etgan. “Mukammal asarlar to`plami” tarkibidagi 18,19,20-jildidagi boshqa turdagi g`azallarda ham shu kabi xususiyatlar o`z ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Nazora Bekova. Alisher Navoiy forsiy merosining janriy xususiyatlari va badiiyati. T.:2023. 236 b
2. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik–T.: “Tamaddun”, 2018.–520b
3. Olimjon Davlatov. Foniyning muxtara’ g`azallari. “O`zbekiston adabiyoti va san’ati”, 2013, 47-son.
4. Alisher Navoiy. Devoni Foniyy. Mukammal asarlar to`plami. 20jildlik, –T.: Fan, 2000-2003, 18-20-jildlar.
5. Mir Alisher Navoiy. Foniyy gulshani (forsiydan J. Kamol tarjimasini), –T.: Meriyus, 2011.